



## BADIIY MATNDA MORFOLOGIK VOSITALARNING ESTETIK MA'NO HOSIL QILISHDAGI AHAMIYATI

**Musulmanova Nargiza Raxmatillayevna,**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*  
[nargizajon75@mail.ru](mailto:nargizajon75@mail.ru)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15243767>

***Annotatsiya.** Badiiy matnlarni grammatik vositalar orqali tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligida dolzarb mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqolada ham morfologik vositalarning estetik ahamiyati, ularni hosil qiluvchi lingvistik vositalar, til rivoji va lug‘at tarkibidagi o‘rni haqida ma‘lumotlar berilgan. So‘z turkumlarining, dialektizm va tinish belgilarining ham ushbu vazifani bajarishi haqidagi mulohazalar qisqacha mushohada qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** lingvopoetika, estetika, grammatik vosita, morfologik vosita, so‘z turkumlari.*

Biz avvalgi ishlarimizda lingvopoetikani til va adabiyot bilan integratsiyada ekanligini, ikkisi nihoyatda ahamiyatli bo‘lgan bir butunlikni tashkil qilishini aytib o‘tgan edik. Badiiy matnda morfologik vositalarning estetik ahamiyati haqida dunyo tilshunosligida ko‘plab ilmiy-tadqiqot ishlarida bayon etilgan bo‘lib, unga munosabatlar ham turlichadir. Xususan, Ye.A.Dolginaning “О роли грамматических средств выражения в художественном тексте (на материале романа Ф.С.Фитсджералда «Великий Гетсби»)» maqolasida morfologik vositalar turli so‘z turkumlarining ifodalanishi orqali asar muallifining estetik dunyoqarashi va o‘quvchining bu asardan oladigan estetik ta’siri ifodalab berishga harakat qilingan. Fe‘l zamonlari, asliy va nisbiy sifatlar, ot va ravish so‘z turkumlari orqali voqea-jarayonlarning rivoji hamda qahramonlarning tashqi ko‘rinishi, ichki kechinmalari, emotsiyalari va boshqa holatlarni tahlil qilib bergan.

“Morfologik vositalar – lingvistikaning asosiy qismlaridan biri bo‘lgan lingvopoetikning badiiy qiymati va predmeti hisoblanadi. Shuningdek, lingvopoetika “til birliklari orqali badiiy matnning estetik tarkibini o‘rganadi”. Estetik vositalar orqali esa muallif o‘zining emotsional-ekspressiv holatini ifodalashi mumkin. Shu bilan birgalikda nasriy va nazmiy asarlarda turli morfologik vositalar orqali ham estetik holatni namoyon etish mumkin. Masalan, fe‘l zamonlari shakllari, shaxs-son shakllarining noodatiy qo‘llanilishi, mayl va nisbat kategoriyalari, tasdiq va inkorni teskari ifodalash, sifat va ravish so‘z turkumiga kiruvchi birliklarning ko‘p va takror qo‘llanilishi, undov va kirish so‘zlarning umumli qo‘llanilishi, “muallif so‘zlari”ning (A.Oripovda *larzakor*, Ikrom Otamurodda *kangul* kabi) qo‘llanilishi, sintaktik jihatdan so‘z birikmasi va gaplarning o‘ziga xos ifodalanishi, gap tarkibida qo‘shirnoq ichida ayrim so‘z va iboralar, atama va terminlar yoki shunga o‘xshashlarning faol qo‘llanilishi hamda ularning izohlari keltirilishi, morfologik

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



vositalar orqali o‘quvchining kayfiyatiga salbiy yoki ijobiy ta’siri orqali ayrim emotsional-ekspressiv holatlarni ham ifodalash mumkin. Bir so‘zning asarda qayta-qayta ishlatilishi va unda morfologik vositalarning turlicha namoyon bo‘lishi badiiy asarning ham lingvistik, ham poetik qiymatiga ta’sirini ko‘rish mumkin. Odatda, asarda so‘zning ifodalanishi muallifning so‘z qo‘llash mahoratiga bog‘liq. Masalan, takrorlardan qochish maqsadida bir so‘zning bir necha sinonimik birliklaridan yoki ekspressivlikni hosil qiluvchi vositalar, troplar va sintaktik figuralardan foydalanish mumkin. Ammo, muallif o‘z ixtiyori va uslubiga ko‘ra bir so‘zni o‘z asari ichida bir necha bor takror holatda ham qo‘llashi mumkin. Asar muallifi morfologik vositalardan foydalanishda uning grammatik xususiyatlariga unchalik ahamiyat bermaydi. Uning uchun asarning mazmuniy jihati mukammal chiqishi zarur. Lingvistik jihatdan tahlil qilinganda esa, morfologik vositalarning to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llanilishi uning har tomonlama mukammal ekanligini ochib bera oladi.

Badiiy asarni lisoniy tahlil qilishda so‘z turkumlarining o‘rni nihoyatda muhim. Chunki ular orqali muallif asar syujetini to‘liq yoritib beroladi. Tahlillar jrayonida biz hech bir so‘z turkumini e’tibordan chetda qoldira olmaymiz, ya’ni qaysi birinidir juda muhim va qaysi birinidir nisbatan kamroq ishlatiladi deya olmaymiz. Chunki bu asar muallifining uslubi va so‘z qo‘llashdagi mahoratiga nihoyatda bog‘liq. Asarlarning lisoniy tahlilida so‘zlar ishlatilishining statistik tahlili ham muhim rol o‘ynaydi va aynan shunda so‘zlarning turkumlariga ko‘ra qo‘llanilishi oydinlashadi. Tilshunos olim S.Karimov ayrim taniqli o‘zbek shoir hamda yozuvchilarning bir nechta badiiy asarlarda so‘z qo‘llash statistikasini ishlab chiqqanlar. Xususan, “Abdulla Qahhor asarlari tilining lug‘ati” chastotali lug‘atida yozuvchi asarlarida qo‘llagan so‘zlarning alifboli, chastotali va ters lug‘ati ishlab chiqilgan. Shuningdek, ustozning “Zulfiya asarlari lingvostilistikasi” monografiyasida ham shoira Zulfiyaning tildan foydalanishdagi mahorati va o‘ziga xos uslubi, o‘zbek tili taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, til elementlarining poetik matn shakllanishidagi xizmatlari lingvostilistik va lingvostatistik metodlar asosida tahlil qilingan. O‘zbek tilshunosligi tarixida ham badiiy asarlar tilining lingvistik tahlillariga bag‘ishlangan juda ko‘plab maqola va kitoblar mavjud bo‘lib, ular yordamida asarlar mualliflari va asarda aks ettirilgan voqea-hodisalar haqida, asar qahramonlarining nutqi asosida mazkur tilning rivojlanish tarixi haqida, ularda qo‘llanilgan realiyalar va boshqa ko‘plab ma’lumotlar haqida xabardor bo‘lish mumkin.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining grammatikasi o‘zining tadrijiy taraqqiyoti davomida tildagi bor morfologik vositalarning paydo bo‘lishi, taraqqiy etishi va keskin kamayib ketishi holatlari ham mukammal o‘rganildi. Ushbu vositalarning etimologiyasi ularning ayrimlari uzoq o‘tmishdan bugungi kungacha o‘zgarmasdan

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



ishlatilishi haqida ma'lumot bersa, ayrimlari o'zgargan holda nutqimizga o'zlashib borayotganligidan dalolat beradi. Ma'lumki, yer yuzidagi tillar morfologik tasnifiga ko'ra amorf tillar, flektiv, agglyutinativ va polisintetik tillar guruhiga ajratildi. Xususan, o'zbek tili agglyutinativ tillar guruhiga mansub bo'lib, unga ko'ra so'z o'zagi yoki negiziga qo'shimchalar qo'shilishi natijasida yangi so'zlar hosil bo'lishi e'tirof etilgan. Lug'aviy va grammatik shakl yasovchi qo'shimchalar so'z va matnlarning emotsional-ekspressivligini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. So'zlarga qo'shilgan ayrim morfologik vositalar so'zlarning lug'aviy ma'nosiga ham ta'sir qiladi va bu holat, nafaqat so'z, balki butun bir gapning grammatik va sintaktik tabiatiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zbek tilidagi leksemalarga lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shilganda faqat leksemaning lug'aviy ma'nosiga ta'sir qiladi, ammo ular sintaktik vazifa bajarmasa-da, muloqotga kirishish uchun zamin yaratib beradi. Bugungi kunda kichraytirish-erkalash qo'shimchalari badiiy asarlarda eng faol ishlatiladigan morfologik vositalar hisoblanadi. Milliy mentalitetdan kelib chiqib, ismlarga turli hurmat va erkalashni ifodalaydigan qo'shimchalarni qo'shish azaldan turkiy xalqlarning barchasida bo'lib kelgan. O'zbek tilida *-oy*, *-xon*, *-bonu*, *-jon*, *-begim*, *-boy* (*-voy*), *-bek* kabi qo'shimchalar ismlarga qo'shilganda, ularning gender va pragmatik xususiyatlari ochib beriladi.

O'zbek tilida morfologik-grammatik vositalarning nihoyatda turli tumanligi badiiy asarning estetik qiymatini oshirishga katta yordam beradi. Masalan, o'zbek tilida bugungi kunda 6ta kelishik bo'lib, 5 ta kelishik o'z ko'rsatkichlariga ega. Ularning ayrimlari, xususan, tushum kelishigi *-ni*, *-n*, *-in*, qaratqich kelishigi *-ning*, *-nin* (*poetik*) kabi shakllari badiiy matnning ham o'ziga xos betakrorligi, ham zamonaviy yoki mumtoz usulda yozilganligini ifodalaydi va shu bilan birga uning uslubi (stili)ga ham ishora qiladi. Poetik dialektizm qo'shimchalarning muallif dialektiga xos qo'lanilishi asarning ekspressivligida to'laligicha namoyon bo'ladi.

Bundan tashqari kelishik qo'shimchalari so'z o'zagi yoki negizining qanday undosh bilan tugashiga ko'ra ham turlicha qabul qiladi. Masalan, jo'nalish kelishigi *-ga* shakli *-qa*, *-ka* shaklida ham bo'lishi mumkin. Poetik ekspressivlikni oshirish maqsadida chiqish kelishigining *-dan* shakli *-tan*, *-din* shakllarida ham qo'llanilishi ko'p kuzatiladi. Ba'zi o'rinlarda badiiy asarlarda o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi *-da* chiqish kelishigi qo'shimchasi *-ga* bilan ham almashinib qo'llanilganligini ko'p uchratish mumkin. Kelishik kategoriyasining grammatik shakllari kategorial, yondosh va hamroh ma'nolari bizning nomzodlik dissertatsiyamizda to'laligicha tadqiq etilgan bo'lib, uning sintaktik, ya'ni tobe so'zni hokim so'zga bog'lash vazifasi ishda o'rganib chiqilgan.



Badiiy matnlarda tasviriylik va emotsionallikni ifodalovchi shakllardan foydalanishda morfologik vositalarning o‘rni nihoyatda katta. Xususan, lug‘aviy va sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar ushbu birliklarni nutqqa olib kiradi. Til va nutq vositalari orqali esa so‘zlarning leksik va grammatik ma‘nolari ochib beriladi hamda muallif ifodalamoqchi bo‘lgan fikrlar anglashiladi. Asar o‘quvchisining estetik zavq olishida sifat so‘z turkumi va uning morfologik vositalarning o‘rni nihoyatda muhimdir. Chunki sifat so‘z turkumining boshqa so‘z turkumlariga nisbatan emotsional-ekspressivlikni oshirishda imkoniyatlari kengroq. Asliy sifatlarning grammatik xususiyatlari uning darajalanishi bo‘lib, belgining me‘yordan kam yoki ortiq ekanligini turli usullar bilan ifodalanishi matn ta‘sirchanligini oshirishga bir karra o‘z hissasini qo‘shadi. Morfologik jihatdan sifatlarning shakllanishida munozarali masalalardan biri bo‘lgan qiyosiy (amaliy tilshunoslikda) va ozaytirma (sistem tilshunoslikda) sifatlarning strukturasi jihatidan bir xil. Ammo, zamonaviy tilshunoslik sifatlarning oddiy, ozaytirma, orttirma darajalarini ta‘kidlar ekan, bu o‘rinda o‘z qarashlarini berib o‘tishadi. Biz bu masalani keyingi tadqiqotlarimizda ochib berish uchun qoldirdik.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, badiiy asar tilini o‘rganishda matnda morfologik vositalarning estetik ma‘no hosil qilishdagi ahamiyati haqida Yevropa va rus tilshunosligida bo‘lgani kabi, o‘zbek tilshunosligida ham o‘ziga xos o‘ringa ega. Badiiy asarlarning qaysidir bir vazifasi estetik zavq berishga ega bo‘lsa, demak, uni amalga oshirish uchun, albatta, grammatik vositalar asosiy qurol sifatida oldingi o‘rinda turadi. Har bir yozuvchi o‘zining asarini mazmun va mavzusi jihatidan qiziqarli, ta‘sirchan hamda esda qolarli tarzda chiqishi uchun bor mahoratini ishga soladi, bunda, shubhasiz, tilning barcha unsurlari o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Долгина Е.А. О роли грамматических средств выражения в художественном тексте (на материале романа Ф.С.Фитцджеральда «Великий Гэтсби») //Филологические науки. Вопросы теории и практики. –Тамбов: Грамота, 2018. № 3(81). Ч2. С. 302-306.
2. Karimov S. Zulfiya asarlari lingvostilistikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2006. –120 b.
3. Karimov S., Qarshiev A., Isroilova G. Abdulla Qahhor asarlari tilining lug‘ati. Chastotali lug‘at. –T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 420 b.
4. Musulmanova N. Grammatik shakllarda kategorial, yondosh va hamroh ma‘no (zamon va mayl kategoriyalari misolida). Monografiya. –Toshkent. Fan. 2012. 98 B.
5. Musulmanova N.R. Filologiya yo‘nalishi rusiyzabon guruhlarida o‘zbek adabiyoti fanini o‘qitishda asar tahlili muammolari. *O‘zbek tilining xorijda o‘qitilishi: ta‘lim nazariyasi va amaliyoti*, I[01], 39–44. Retrieved from <https://aphil.tsuull.uz/index.php/anjuman/article/view/97/86>